

## RAQAMLASHTIRISHNING KORXONALAR HISOBOTINI TAKOMILLASHTISHDAGI O'RNI

*Yangiboyev Berdiyar Yangiboyevich*

*Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti NTM professori, iqtisodiyot fanlari doktori  
[yangiboyevberdiyar@mail.ru](mailto:yangiboyevberdiyar@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar va korxonalar moliyaviy hisobotlarini taqdim etishda tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha to'g'ri va aniq raqamlar taqdim qilishlari alohida ahamiyat kasb etishi, moliyaviy hisobotlarning ijobiyligini ta'minlash, shuningdek xalqaro moliyaviy standartlardan keng va samarali foydalanish muhim mezon ekanligidan kelib chiqqan holda hisobotni qabul qilish va nazorat qilishga doir masalalar ko'tarilgan va ularni takomillashtirish bo'yicha bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, hisobot, moliyaviy hisobot, korxona balansi, korxona mablag'lari, moliyaviy tahlil, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

### **Kirish**

O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimining to'laqonli faol a'zosiga aylanib borgani sayin, xalqaro hisob tizimi mamlakatdagi buxgalteriya hisobining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'z navbatida mamlakatimiz amaliyotidagi buxgalteriya hisobi ham milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanib borishini taqoza qilmoqda. Boshqa yo'naliishlar qatorida hisobot tizimidagi yangidan - yangi g'oyalar, atamalar va yondashuvlarning, xususan moliyaviy hisobot to'g'risidagi turlicha qarashlar yuzaga kelishi buxgalteriya hisobi tizimidagi islohotlarni yanada kengroq doirada davom ettirishni talab qilmoqda.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichida moliyaviy natijalarni aniqlashda olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxida sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyat darajasida kamaytirish muhim o'rinn tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan narx mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi.

Korxonalarning moliyaviy hisoboti belgilangan talablar va qoidalarga riosa qilgan holda taqdim qilinsa undagi ma'lumotlar hisobot davri mobaynida uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida yetarlicha axborot bilan ta'minlanadi. Shu bilan birga, korxonalar majburiy tartibda statistika organlariga ham hisobot taqdim etib turadilar.

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

Agarda hisobot ma'lumotlari noaniq yoki nohaqiqiy bo'lsa, birinchidan, sarflangan vaqt va mablag' behuda ketgan bo'ladi, ikkinchidan, olingan natijalar va chiqarilgan xulosalar noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Korxona balansi - buxgalteriya hisobotining asosiy shakli hisoblanadi, qolgan shakllar undagi ma'lumotlarni batafsilroq ochib berish va to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning hozirgi zamon yo'nalaishlari to'g'risida fikrlar yuritiladi va O'zbekiston korxonalari hisobotini Xalqaro standartlar asosida takomillashib borishni takomillashtirish yuzasidan fikrlar bayon qilinadi.

### **Tadqiqot Metodologiyasi**

Korxonalarning moliyaviy hisoboti bo'yicha bir qator me'eriylar hujjatlar qabul qilingan va ularda masalaning yechimlari bo'yicha ko'rsatmalar berilgan, ammo bu hujjatlar ancha eskirib qoldi va bozor iqtisodiyoti talablariga qisman javob beradi. Shu munosabat bilan moliyaviy hisobotlar yuzasidan xalqaro standartlarga o'tish zaruriati paydo bo'lди.

Moliyaviy tahlilga o'xshab, rentabellik darajasini o'lchashda ham umumiy qabul qilingan uslub, ko'rsatkichlar tuzilmasi hali shakllanmagan. Shuning uchun, amaliyotda korxonalar tarmoq xususiyatlardan kelib chiqib, xarajatlar moddalarini tasniflash va shunga muvofiq hisobini yuritish maqsadga muvofiqdir va bu esa, korxonada samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga va xarajatlarni eng maqbul variantlarda boshqarishga xizmat qiladi.

Hisobot taqdim qilish shakllari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 140- sonli buyrug'iga muvofiq taqdim etib kelingan (1). Bu buyruqqa Moliya vazirligining 2004-yil 20 - dekabrdagi 1209 - sonli buyrug'i bilan o'zgartirishlar kiritilgan hamda ular moliyaviy tahlil maqsadlari uchun asosiy manbalar hisoblanib kelingan. Aynan shu buyruqning o'zi bilan hisobot shaklini to'ldirish to'g'risidagi yo'riqnomalar ham tasdiqlangan. Yo'riqnomada korxonalarning moliyaviy hisoboti bo'yicha ko'rsatmalar berilgan (2).

Hisobotning asosiy shakllari korxona balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natjalarni shakllantirish tartibi” to'g'risidagi Nizom (3) moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

Moliyaviy hisobotning 2-son shaklida, xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromad va xarajatlar aks ettiriladi, 3-son buxgalteriya hisoboti milliy standarti ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bo'lib, unda shu hisobotga tegishli barcha masalalar yoritilgan.

Moliyaviy hisobotlarning 3- shakli “Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot”dir. Unda korxonadagi mavjud asosiy vositalar va ularning harakati to'g'risidagi ma'lumotlar turlari bo'yicha amaldagi asosiy fondlar tasniflanishiga ko'ra keltiriladi. Shu bilan birga, mazkur hisobotda quyidagi ma'lumotlar yoritiladi:

- sotishdan olingan sof tushum;
- sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija;

## Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

- asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa operatsion daromad va xarajatlar;
- asosiy xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijasi;
- moliyaviy faoliyatning boshqa daromad va xarajatlari;
- umumxo'jalik faoliyatning moliyaviy natijasi;
- favqulodda foyda va zararlar;
- daromad solig'i to'langungacha bo'lgan umumiyligi moliyaviy natija;
- hisobot davrining sof foydasi (zarari).

Umuman, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, avvalgi va hozirgi balans hisobotlarini bog'lab turuvchi bo'g'in hisoblanadi, ya'ni u hozirgi balansdagi o'zgarishlar, avvalgisiga nisbatan qanday daromad va xarajatlar hisobiga o'zgarganligini ifodalaydi.

### **Tahlil va Natjalar**

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablariga muvofiq tarzda taqdim etishdan ko'zlangan asosiy maqsad xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisobot sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning Xalqaro standarti asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni Xalqaro standartlar asosida tayyorlashi belgilab qo'yildi.

Tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllari faqat shaklan o'zgaribgina qolmay, balki ma'nosi ham sezilarli darajada o'zgargan, ya'ni moliyaviy tahlil maqsadlari uchun ular axborotlarga yanada boyigan. Barcha qilingan o'zgartirishlar hisobotlarni Xalqaro andozalar darajasida yetkazish maqsadida amalga oshirilgan, jumladan, buxgalteriya balansining aktiv va passiv tomonlarini ikki bo'limli holatga keltirish masalasi o'z yechimini topgan.

Mahsulotlarning Xalqaro bozorlarga kirib borishlari uchun aksionerlar, investorlar maxsulot tannarxi, ularning bozor narxlari va moliyaviy natijalar to'g'risida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Shu holat kompaniyalarda moliyaviy natijalar hisobi to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlarni olish va muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Bu shundan dalolat beradiki, Xalqaro bozorlarga chiqish xorijiy hamkorlarning moliyaviy natijalar hisobi xususiyatlarini aniqlash, ularda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashni taqozo etadi. Shuning uchun ayni paytda butun dunyoda moliyaviy natijalar hisobini Xalqaro standartlar asosida tashkil qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Vaholanki, jahonning ko'pgina davlatlari fond birjalarida aksiyalari joylashtirilgan kompaniyalardan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishni talab etadi.

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

Mamlakatimiz iqtisodiyotining turli soha va tarmoqlarida faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashuv jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 24 - fevraldag'i "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611 - sonli Qarorida bu ishlarni takomillashtirish buxgalteriya hisobini barcha bosqichlarda ratsionallashtirish lozimligi va bunday sharoitda buxgalteriya hisobi va marketingni uyg'unlashtirishga asoslangan strategik hisobot tizimiga erishish ma'lum bir davr uchun tashkilotning faoliyati natijasi deb tushunish kerak degan xulosaga olib keladi (4).

Tadqiqot ishi jarayonida iqtisodiy voqelik jarayonlarini o'rganishda tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, istiqbolli bashoratlash, buxgalteriya hisobi va boshqa usullardan foydalanilgan. Bularning natijasida O'zbekiston Respublikasi moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich o'tmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha harakatlar strategiyasida "Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish" vazifasi ham xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan Moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni dolzarb masalalar qatoriga kiritilgan (5).

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlari asosida hisobotni tuzish uslubiyotini takomillashtirishni taqozo etadi.

Daromadlar va xarajatlarning moddalari o'rtasidagi chegara hamda ularning har xil kombinatsiyalari ham xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlari natijalarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunday bo'limlar har xil moddalarni o'z ichiga oladi. Masalan, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot soliqqa tortilgungacha va undan keyingi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan daromadni ko'rsatadi.

Moliyaviy natijalar hisobi va hisoboti amaliyotida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar va boshqa moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar (masalan, davlat organlari, kasaba uyushmalari, biznes-sheriklar va h.k.) o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotdan manfaatdor bo'ladi.

Salohiyatlari investor biror biznesga mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqidagi qarorini yaxshilab baholashga urinadi, bunda u tashkilotni ish yuritayotgan tarmoqdagi boshqa shirkatlar bilan solishtirib ko'rishiha to'g'ri keladi. Buning uchun mazkur tashkilotning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holati va o'tgan davr faoliyati natijalari haqidagi raqamli va tushuntirish matnlaridan iborat hisobotga zarurat tug'iladi.

Ayniqsa qayta ishslashga ixtisoslashgan korxonalar mahsulotlarining har bir turi bo'yicha alohida hisob yuritishlari talab etiladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qayta ishlovchi korxonalar bozor va iste'molchilar talablaridan kelib chiqib, xomashyon qayta ishslashlari va shu asosda mahsulotlar assortimentini ko'paytirishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, amaliyotda, aksariyat, korxona boshqaruvi va buxgalteriya bo'limi mutaxassislari xarajatlarni tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, alohida moddalariga ajratish shart emas deb hisoblaydilar. Bizningcha esa, umuman olganda, ushbu holat korxona hisob siyosatiga zid bo'lmadasa, lekin ushbu mulohazalar to'g'ri emas, chunki

## Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"

qayta ishlovchi korxonalar mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari shakllantirilishiga bo‘lgan ehtiyoj ortib boraveradi.

Korxona buxgalteriya hisobida moliyaviy natijalarni aniqlashda xarajatlar moddalari bo‘yicha ma’lumotlar muhimligi ortadi, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa, xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlar bazasi aniqligi, to‘liqligi va tezkorligi, ular bo‘yicha tahliliy natijalar, unumsiz xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo‘llash ahamiyati ortib boradi.

Bizningcha xarajatlarni alohida moddalariga ajratilgan holda hisobot shakllarida ham aks ettirish maqsadga muvofiq, chunki har bir tarmoqning mahsulotini rentabelligi va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda va moliyaviy hisobot ma’lumotlari umumlashgan ma’lumot bo‘lganligi sababli ko‘zlangan maqsad uchun yetarli ma’lumotni bera olmaydi.

Shuning uchun korxonalarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko‘rsatish maqsadida yangicha Xalqaro standartlar talabiga javob beradigan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”ni blankalari ishlab chiqilib joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotni korxona boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin.

Bu esa ularga aniq ma’lumotlarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o‘tashi mumkin. Ma’lumki, rentabellik korxonalar faoliyatini, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini umuman ifodalashi lozim.

### **Xulosa**

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yuritish sub’ektlarida hisobot taqdim qilish yuzasidan moliyaviy natijalarini hisobga olish va nazorat qilishni takomilashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni xulosa sifatida keltiramiz:

1. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish yuzasidan qabul qilingan Konsepsiyasiga muvofiq moliyaviy hisobot foydalanuvchilarining axborot ehtiyojlarini qondirish.
2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda amaldagi usullarga o‘zgartirish kiritishi kerak bo‘ladi, agarda o‘zgargan tarkib to‘liq saqlanilsa yoki muqobil ko‘rinishda taqdim qilishdan olinadigan nafning meyori ko‘rib chiqilishi lozim
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda foydani oshirishning yangi imkoniyatlarini topish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu esa, moliyaviy natijalarni shakllantirishning konseptual jihatlarini takomillashtirishni talab etadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda har bir tarmoq moliyaviy natijasini aniq ko‘rsatish maqsadida yangicha xalqaro standartlar talabiga javob beradigan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”ni blankalari ishlab chiqilib, joriy qilinishi kerak. Shunda har bir tarmoqning ishlab chiqarish tannarxi, moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotni korxona boshqaruvi xodimlari oson va aniq olishlari mumkin. Bu esa ularga aniq ma’lumotlarga asoslanib, tezkor qarorlar qabul qilishda muhim axborot vazifasini o‘tashi mumkin.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug‘i.

**Special issue: "DIGITALIZATION OF FINANCE: NEW TRENDS AND IMPLEMENTATION PRACTICES"**

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 20 dekabrdagi 1209 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Hisobot shaklni to'ldirish to'g'risidagi yo'riqnomasi".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi» to'g'risidagi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 24 - fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611 Qarori.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. 2017. strategy.regulation. gov.uz.